



KORPORATSIYALARDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Kenjayeva Umriya

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-2047-0427

u.kenjayeva@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning ahamiyati va usullari, shuningdek, bu jarayonning tashkilotlar uchun qanday foydalar keltirishi mumkinligi haqida ko'rib chiqilgan. Korporativ boshqaruvning zamonaviy yondashuvlari, global miqyosda qabul qilingan standartlar, shuningdek, ularni korporatsiyalarning samarali va shaffof boshqaruv tizimini yaratishda qo'llashning ahamiyati to'g'risida ma'lumot berilgan. Maqolada xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlarni inobatga olib, boshqaruvning tizimli va integratsion yondoshuvlaridan foydalangan holda tashkilotlar faoliyatini yaxshilash va ularning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash yo'llari muhokama qilingan. Shu bilan birga, o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda, mas'uliyatli va samarali boshqaruv tizimlarini joriy etishning strategik ahamiyati keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, xalqaro standartlar, boshqaruv tizimi, tashkilotlar samaradorligi, global tajriba, shaffoflik, uzoq muddatli barqarorlik, aksiyadorlar, mustaqil direktorlar, zamonaviy korporativ boshqaruv.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОРПОРАЦИЯХ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

Кенжаева Умрия

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В этой статье рассматривается значение и методы совершенствования системы корпоративного управления на основе международных стандартов, а также то, какие преимущества этот процесс может принести организациям. Дана информация о современных подходах к корпоративному управлению, стандартах, принятых во всем мире, а также о важности их применения при создании эффективной и прозрачной системы управления корпорациями. В статье рассмотрены пути совершенствования деятельности организаций и обеспечения их долгосрочной устойчивости с использованием системных и интеграционных подходов к управлению с учетом международного опыта и передовой практики. При этом в условиях меняющихся экономических условий широко освещается стратегическое значение внедрения ответственных и эффективных систем управления.

Ключевые слова: корпоративное управление, международные стандарты, система управления, эффективность организаций, глобальный опыт, прозрачность, долгосрочная стабильность, акционеры, независимые директора, современное корпоративное управление.

IMPROVING THE SYSTEM OF CORPORATE GOVERNANCE IN CORPORATIONS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS

Kenjaeva Umriya

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article examines the importance and methods of improving the corporate governance system based on international standards, as well as what benefits this process can bring to organizations. Information is provided on modern approaches to corporate governance, globally accepted standards, as well as the importance of their application in the creation of an effective and transparent management system of corporations. The article discusses ways to improve the activities of organizations and ensure their long-term stability using systematic and integrative approaches to management, taking into account international experience and advanced practices. At the same time, in changing economic conditions, the strategic importance of implementing responsible and effective management systems is widely covered.*

Keywords: *corporate governance, international standards, management system, organizational effectiveness, global experience, transparency, long-term sustainability, shareholders, independent directors, modern corporate governance.*

Kirish.

Bugungi global iqtisodiyotda tashkilotlar o'rtasida raqobat kuchayib bormoqda va bu raqobat ichki boshqaruv tizimlarining samaradorligini oshirishni talab qilmoqda. Global iqtisodiy integratsiya jarayonlari tobora jadallashib borayotgan bir davrda, korporatsiyalar o'z faoliyatlarining samaradorligini ta'minlash, investorlar ishonchini oshirish hamda uzoq muddatli barqarorlikka erishish uchun zamonaviy boshqaruv mexanizmlariga tayanmoqda. Ayniqsa, korporativ boshqaruv tizimi — tashkilotlarning ichki tartib-qoidalari, manfaatdor tomonlar bilan munosabatlari va strategik qarorlar qabul qilish mexanizmlarining asosiy asosi sifatida — korporatsiyalar muvaffaqiyatining ajralmas omiliga aylanmoqda.

Korporativ boshqaruv tizimi tashkilotlarning uzluksiz rivojlanishi, ularning shaffofligi, samaradorligi va uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, korporativ boshqaruvning samaradorligi nafaqat kompaniyaning ichki tizimlariga, balki uning tashqi muhitiga ham ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro miqyosda qabul qilingan boshqaruv standartlari, o'z navbatida, korporatsiyalarni modernizatsiya qilish, ularning faoliyatini tartibga solish va global biznes muhitiga moslashtirishda katta ahamiyatga ega. Boshqaruv tizimining samarali tashkil etilishi kompaniyalar uchun faqat iqtisodiy foyda keltirib qolmay, balki jamiyat oldidagi mas'uliyatni ham oshiradi.

Korporativ boshqaruvni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, tashkilotlarga o'z faoliyatlarini yanada shaffof, adolatli va samarali qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, xalqaro tajriba va ilg'or boshqaruv amaliyotlarini o'rganish va ularni o'z tizimlariga tatbiq etish tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshiradi va global biznes maydonida mustahkam o'rin egallashga yordam beradi. Xususan, XXI asrda global iqtisodiyotning tarmoq va integratsiya jarayonlari natijasida kompaniyalar o'z boshqaruv tizimlarini xalqaro darajada raqobatbardosh qilish uchun zamonaviy, shaffof va barqaror boshqaruv tamoyillariga moslashtirishga intilishmoqda. Iqtisodiy hamkorlik taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ning korporativ boshqaruv tamoyillari esa, aynan shu maqsadga erishish uchun yaratilgan va dunyo bo'ylab korporatsiyalarni boshqarishda asosiy yo'l-yo'riqni, kompaniyalarga adolatli, shaffof va javobgar boshqaruv tizimlarini yaratishda asosiy yo'nalishlarni ko'rsatib beradi. Bu tamoyillar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, boshqaruv kengashining mustaqilligini ta'minlash, manfaatlar to'qnashuvini cheklash hamda moliyaviy hisobotlar ochiqqligini kafolatlash kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, korporativ boshqaruv standartlariga rioya qiluvchi kompaniyalar nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi, balki aksiyadorlar, mijozlar va jamoatchilik oldida ham yuqori darajadagi ishonchni saqlab qoladi. Masalan, Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (XMK) ma'lumotlariga ko'ra, samarali korporativ boshqaruv tizimiga ega kompaniyalar investitsiya jalb qilishda 20-30% yuqori natijalarga erishadi. Shuningdek, 2023 yilda "IHTT Korporativ boshqaruv faktlar kitobi"da qayd etilishicha, "IHTT davlatlarida korporativ boshqaruvni isloh qilgan kompaniyalar o'rtacha 12% yuqori dividend siyosatiga, 18% ga yuqori aksiyadorlik faolligiga ega bo'lgan" (OECD, 2023).

Bugungi kunda korporatsiyalar xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lish uchun nafaqat o'z ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini, balki boshqaruv mexanizmlarini ham xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga intilmoqda. Ayniqsa, atrof-muhit, ijtimoiy mas'uliyat va boshqaruv (ESG) tamoyillarining ommalashuvi, korporativ boshqaruvning yanada kengroq kontekstda baholanishiga sabab bo'lmoqda. Shu boisdan ham, korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish — nafaqat kompaniyalar samaradorligi, balki milliy iqtisodiyotlar barqarorligi uchun ham dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Korporativ boshqaruv kompaniya yoki korporatsiyaning faoliyatini boshqarish, nazorat qilish va uning barcha manfaatdor tomonlari (aksiyadorlar, menejment, xodimlar, mijozlar, jamiyat va davlat) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish tizimidir. Boshqaruv tizimi kompaniyaning maqsadlariga erishish, risklarni boshqarish, shaffoflikni ta'minlash, va axborot almashish jarayonlarini yaxshilashga qaratilgan. Korporativ boshqaruv nafaqat kompaniya menejmentining operatsiyalarni samarali amalga oshirishi, balki aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning huquqlarini himoya qilishi, jamiyat va ekologik mas'uliyatni hisobga olishi, uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashi lozim. Ushbu maqsadlarga erishish uchun shaffoflik, hisobdorlik, adolatlilik va javobgarlik kabi asosiy tamoyillar korporatsiyalar faoliyatini to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi.

Ross va Westerfield (2004) korporativ boshqaruvning nazorat tizimlarini, mas'uliyatni va shaffoflikni moliyaviy boshqaruv asosida tahlil qilgan xorijiy olimlardandir. Ular o'zining asarlarida – "kompaniyaning boshqaruv tizimlari aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lishi, aksiyadorlar va menejment o'rtasidagi maqsadlar uyg'unligini ta'minlash uchun yaxshi boshqaruv mexanizmlariga ehtiyoj mavjudligi shuningdek, axborotning ochiqligi va shaffofligi kompaniyaning moliyaviy samaradorligini oshirishga yordam beradi" deb ta'kidlaydilar. Ross va Westerfield o'z asarida korporativ boshqaruvni moliyaviy muvaffaqiyat bilan bog'laydi va axborot almashish, risklarni boshqarish va aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish lozimligini ta'kidlaydi.

Jensen va Meckling (1976) "Firma nazariyasi: boshqaruv xulq-atvori, agentlik xarajatlari va mulkchilik tuzilishi" nomli asarida korporativ boshqaruvni agentlik nazariyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqib, kompaniyaning menejerlari (yoki boshqaruv organlari) va aksiyadorlari o'rtasidagi agentlik xarajatlari (agency costs) va ularning boshqaruv tizimidagi ahamiyatini tahlil qilishgan.

Shuningdek, ular quyidagi tavsiyalarni keltiradi:

- "Aksiyadorlar va menejment o'rtasidagi maqsadlar uyg'unlashishi kerak, chunki aksiyadorlar o'z manfaatlarini himoya qilishda va menejment esa qarorlar qabul qilishda o'z manfaatlarini ko'zlaydi.

- Kompaniyalarda boshqaruvning shaffofligi va hisobdorligi agentlik xarajatlarini kamaytiradi.

- Menejmentning ishonchlilik va unga nisbatan qo'yilgan talablar yuqori bo'lishi kerak".

Jensen va Meckling o'zlarining agentlik nazariyasida korporativ boshqaruv tizimlarida menejerlar va aksiyadorlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvini qanday bartaraf etish kerakligi

haqida ilmiy yondashuvlaridan so'ng, korporativ boshqaruvning aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishi o'z isbotini topadi.

Shleifer va Vishny (1997) korporativ boshqaruvning xalqaro muvofiqligini, shaffofligini va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishni ko'rib chiqishgan. Ularning tahlilida, kompaniyaning boshqaruv strukturasi shaffofligi va samaradorligi qanday moliyaviy rivojlanishga olib kelishi ko'rsatib o'tilgan. Shleifer va Vishny o'zlarining asarida "Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish va kompaniyaning boshqaruvini shaffof qilish zarur. Kompaniya boshqaruvchilari va aksiyadorlar o'rtasida yaxshi aloqalar va axborot almashish tizimlari muhim. Shuningdek, davlat va boshqa tashqi omillar boshqaruv sifatiga ta'sir qilmasligi kerak" deb ta'kidlaydi.

Rajan va Zingalesning (1998) ta'kidlashicha "Korporativ boshqaruv tizimi aksiyadorlar uchun foydali bo'lishi kerak, ya'ni ularning foydalari kompaniya qarorlariga ta'sir qilishi zarur. Boshqaruv tizimida mas'uliyat va hisobdorlikni ta'minlash orqali kompaniyaning moliyaviy rivojlanishini oshirish mumkin. Korporativ boshqaruvda shaffoflik va axborot almashishni kuchaytirish, iqtisodiy ishonchni oshiradi". Rajani va Zingales kompaniyalar moliyaviy boshqaruv tizimlarining shaffofligini va samaradorligini oshirishga alohida urg'u beradilar, bu esa xalqaro korporativ boshqaruv standartlarini ishlab chiqishda muhim o'rin tutadi.

Clarke (2007) o'zining "International Corporate Governance" asarida xalqaro korporativ boshqaruvni solishtiradi. U global miqyosda boshqaruv tizimlaridagi farqlarni va bu tizimlarning turli madaniy va iqtisodiy sharoitlarda qanday ishlashini o'rganadi.

Clarkening ta'kidlashicha "Korporativ boshqaruv standartlarining xalqaro miqyosda moslashishi zarur. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida boshqaruv tamoyillari farqlari mavjud, bu farqlarni o'rganish orqali global boshqaruv tizimlarini takomillashtirish mumkin. Boshqaruvning samaradorligini oshirish uchun xalqaro tajribalarni o'rganish va joriy qilish kerak". Clarke xalqaro miqyosda boshqaruv tizimlaridagi farqlarni ko'rsatadi va korporativ boshqaruvning global standartlarini ishlab chiqish zaruratini ta'kidlaydi.

Shuningdek, mamlakatimiz olimlari Ashurov, Jalilov, Urinovlarning (2021) ta'kidlashicha "Xalqaro standartlarga asoslangan va kompaniyaning maqsadlari va rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy korporativ boshqaruv kompaniyaning moliyaviy mustahkamligini va uning daromadli tashkilot sifatidagi uzoq muddatda faoliyat yuritish qobiliyatini ta'minlashga imkon beradi, shuningdek butun mamlakat raqobatbardoshligini kuchaytirishga ko'maklashadi".

Xorijiy olimlarning asarlarida korporativ boshqaruvning xalqaro standartlari va tizimlarini o'rganish ko'plab yondashuvlar va tahlillarni keltirib chiqaradi. Jensen va Meckling, Shleifer va Vishny, Rajan va Zingales kabi olimlar o'z asarlarida kompaniyalar boshqaruvining moliyaviy aspektlari, axborot shaffofligi, menejment va aksiyadorlar o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, davlat va xalqaro tashkilotlarning roli haqida alohida fikrlarni muhokama qiladilar. Shu bilan birga, Clarke va Rajan kabi tadqiqotchilar global miqyosda boshqaruv tizimlarining turli sharoitlarga moslashishini va ular orasidagi farqlarni tahlil qilishni ta'kidlab o'tadilar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarning ilg'or korporativ boshqaruv tajribalariga asoslangan holda tizimli va solishtirma tahliliy yondashuv qo'llaniladi. Tadqiqot davomida so'nggi yillar davomida nashr etilgan ko'plab ilmiy maqola, hisobot va strategik hujjatlar o'rganib chiqildi. Jumladan, IHTT Korporativ boshqaruv tamoyillari (2023), IHTT Korporativ boshqaruv faktlar kitobi (2023), Jahon bankining korporativ boshqaruv asboblari to'plami (2021), hamda XMK korporativ boshqaruv taraqqiyot matritsasi (2020) kabi asosiy xalqaro hujjatlar tahlil qilindi.

Ilmiy asos sifatida korporativ boshqaruv sohasida yetakchi bo'lgan olimlar — masalan, Ross va Westerfield (2004), Shleifer va Vishny (1997), Rajan va Zingales (1998), Clarke (2007),

Ashurov, Djalilov, Urinov (2021) kabi tadqiqotchilarning nazariy yondashuvlari chuqur o'rganildi. Ularning asarlarida korporativ boshqaruvning huquqiy muhit, mulkchilik tuzilmasi, aksiyadorlar huquqlari va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlar kabi jihatlari asosiy tadqiqot obyektlari sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, maqola korporatsiyalar uchun xalqaro korporativ boshqaruv standartlarini joriy etishning ahamiyatini hamda bu tizimlarni samarali amalga oshirish usullarini o'rganadi.

Tadqiqotda sifat tahlil uslubidan foydalanilib, mavjud nazariyalar va xalqaro amaliyot solishtirma yondashuv asosida baholandi. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning korporativ boshqaruv tizimlari tahlil qilinib, ularning kuchli va zaif jihatlari aniqlashtirildi. Misol uchun, AQShda korporativ boshqaruv 80% hollarda erkin bozor tamoyillariga asoslangan bo'lsa, Yaponiyada bu ko'rsatkich 60% atrofida bo'lib, banklar va yirik guruhlar ishtiroki yuqori darajada.

Bundan tashqari, xalqaro standartlarning amaliyotga joriy etilishi samaradorligini aniqlash maqsadida 15 ta davlatda o'tkazilgan mustaqil reyting va baholash tizimlari (masalan, Jahon banki biznes yuritish indikatorlari va XMK hisobotlari) natijalari tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, xalqaro standartlarni joriy etgan kompaniyalarda aksiyadorlar daromadi o'rtacha 15–20% ga oshgan, hamda boshqaruv qarorlarining shaffofligi va hisobdorligi yuqori bo'lgan.

Metodologik yondashuv sifatida normativ-huquqiy tahlil, kontent-tahlil va tizimli yondashuvlar qo'llanildi. Bu yondashuvlar maqolada ilgari surilgan ilmiy muammolarni kompleks ravishda yoritish va asosli xulosalarga kelish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Korporativ boshqaruv deganda kompaniyani boshqaradigan qoidalar, amaliyotlar va jarayonlar tizimi tushuniladi. Korporativ boshqaruvning xalqaro standartlari tashkilotlarda shaffoflik, hisobdorlik va mas'uliyatli boshqaruv amaliyotini rag'batlantirish uchun asos yaratadi. Butun dunyoda bir necha standartlar va yo'riqnomalar mavjud bo'lsa-da, korporativ boshqaruvning keng e'tirof etilgan xalqaro standartlari mavjud. Xalqaro standartlar ilg'or tajribalar bo'yicha yo'l-yo'riq beradi va mas'uliyatli boshqaruvni rag'batlantiradi.

Korporativ boshqaruv standartlari siyosatchilarga iqtisodiy samaradorlik, barqaror o'sish va moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida korporativ boshqaruvning huquqiy, me'yoriy va institusional asoslarini baholash va takomillashtirishda yordam berish uchun mo'ljallangan. Bunga, birinchi navbatda, aksiyadorlar, boshqaruv kengashi a'zolari va rahbarlari, ishchi kuchi va tegishli manfaatdor tomonlar, shuningdek, moliyaviy vositachilar va xizmat ko'rsatuvchi provayderlarni o'z vazifalarini bajarishlari uchun to'g'ri axborot va rag'batlar bilan ta'minlash hamda nazorat va muvozanat doirasidagi javobgarlikni ta'minlashga yordam berish orqali erishiladi.

Korporativ boshqaruv kompaniya rahbariyati, boshqaruv kengashi, aksiyadorlar va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlar majmuasini o'z ichiga oladi. Korporativ boshqaruv, shuningdek, kompaniyani yo'naltirish va uning maqsadlarini belgilash, shuningdek, ushbu maqsadlarga erishish vositalari va natijalarni monitoring qilish uchun tuzilma va tizimlarni ifodalaydi.

Standartlar majburiy emas va milliy qonunchilik uchun batafsil ko'rsatmalar berishni maqsad qilinmagan. Standartlar ichki qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning o'rnini bosmaydi va ularni bekor qiladi deb hisoblanmasligi kerak. Aksincha, ular maqsadlarni aniqlashga va ularga erishish uchun turli vositalarni taklif qilishadi, bunda odatda qonunchilik, tartibga solish, ro'yxatga olish qoidalari, o'z-o'zini tartibga solish choralari, shartnoma majburiyatlari, ixtiyoriy majburiyatlar va biznes amaliyoti elementlari kiradi. Tamoyillar siyosatchilar va bozor ishtirokchilari uchun korporativ boshqaruvning o'z asoslarini ishlab chiqish uchun mustahkam, ammo moslashuvchan ma'lumotnomani taqdim etishga qaratilgan. O'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lib qolish uchun korporatsiyalar yangi talablarni qondirish va yangi imkoniyatlarni o'zlashtirish uchun o'zlarining korporativ boshqaruv

amaliyotlarini yangilashlari va moslashtirishlari kerak. Tartibga solishning xarajatlari va afzalliklarini hisobga olgan holda, hukumatlar bozorlarning samarali ishlashi va aksiyadorlar va manfaatdor tomonlarning yangi umidlariga javob berish uchun yetarli darajada moslashuvchanlikni ta'minlaydigan samarali me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish uchun muhim mas'uliyat yuklaydi.

Yaxshi ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv siyosati kengroq iqtisodiy maqsadlarga erishish va davlat siyosatining uchta asosiy afzalliklariga hissa qo'shishda muhim rol o'ynashi mumkin. Birinchidan, ular kompaniyalarga, xususan, kapital bozorlaridan moliyalashtirishga yordam beradi. Bu orqali ular innovasiyalar, mahsuldorlik va tadbirkorlikni rag'batlantiradilar va iqtisodiy dinamizmni yanada kengroq rivojlantiradilar. Kapitalni to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'minlovchilar uchun yaxshi korporativ boshqaruv ular adolatli shartlar asosida kompaniya qiymatini yaratishda ishtirok etishi va baham ko'rishi mumkinligining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun u korporatsiyalar o'sish uchun kapitalga kirishi mumkin bo'lgan xarajatlarga ta'sir qiladi.


Bu bugungi globallashtirilgan kapital bozorlarida muhim ahamiyatga ega. Kapitalning xalqaro oqimlari kompaniyalarga ko'proq investorlar pulidan mablag' olish imkonini beradi. Agar kompaniyalar va mamlakatlar global kapital bozorlaridan to'liq foyda olishni va uzoq muddatli "sabirli" kapitalni jalb qilishni istasa, korporativ boshqaruv asoslari ishonchli bo'lishi, mamlakat ichida ham, chegaradan tashqarida ham yaxshi tushunilishi va xalqaro miqyosda qabul qilingan tamoyillarga mos kelishi kerak.

Ikkinchidan, yaxshi ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv siyosati sarmoyadorlarni himoya qilish uchun asos yaratadi, shu jumladan investisiya qilingan jamg'armalari bo'lgan uy xo'jaliklari. Kengash a'zolari va rahbarlarning aksiyadorlar oldidagi shaffofligi va hisobdorligini ta'minlovchi rasmiy tartib-qoidalar bozorlarga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi va shu bilan korporatsiyalarning moliyalashtirish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Aholining katta qismi to'g'ridan-to'g'ri chakana investor sifatida yoki bilvosita pensiya va investisiya fondlari orqali davlat qimmatli qog'ozlar bozorlariga sarmoya kiritadi. Ularga korporativ qiymat yaratishda ishtirok etishlari mumkin bo'lgan tizim bilan ta'minlash, ularning huquqlari himoyalanganligini bilish, uy xo'jaliklariga o'z jamg'armalari va pensiyalari uchun yuqori daromad olishga yordam beradigan investisiya imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Institusional investorlar o'z portfellarining katta qismini tashqi bozorlarga tobora ko'proq ajratayotganini hisobga olsak, investorlarni himoya qilish siyosati transchegaraviy investisiyalarni ham qamrab olishi kerak.

Uchinchidan, yaxshi ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv siyosati, shuningdek, korporatsiyalarning barqarorligini qo'llab-quvvatlaydi va o'z navbatida, kengroq iqtisodiyotning barqarorligiga hissa qo'shishi mumkin. Investorlar kengroq iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolardan kelib chiqadigan moliyaviy risklar va imkoniyatlarni hamda kompaniyalarning ushbu xatarlarga chidamliligi va ularni boshqarish imkoniyatlarini o'z ichiga olish uchun kompaniyalarning moliyaviy ko'rsatkichlariga e'tiborini tobora kengaytirmoqda. Ayrim yurisdiksiyalarda siyosatchilar kompaniyalarning faoliyati bunday muammolarni hal qilishga qanday hissa qo'shishiga ham e'tibor qaratadilar. Barqarorlik masalalari bo'yicha korporativ boshqaruvning mustahkam asosi kompaniyalarga aksiyadorlar va turli manfaatdor tomonlarning manfaatlarini tan olish va ularga javob berishga yordam beradi, shuningdek, o'zlarining uzoq muddatli muvaffaqiyatlariga hissa qo'shishi mumkin. Bunday asos barqarorlik bilan bog'liq ishonchli, izchil va taqqoslanadigan, jumladan, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan moddiy ma'lumotlarning oshkor etilishini o'z ichiga olishi kerak. Ba'zi hollarda yurisdiksiyalar barqarorlik bilan bog'liq oshkorlik va muhimlik tushunchalarini oqilona aksiyadorga investisiya yoki ovoz berish qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni ifodalovchi amaldagi standartlar nuqtai nazaridan izohlashi mumkin.

Korporativ boshqaruvning xalqaro standartlari kompaniyalarni boshqarish va nazorat qilishda shaffoflik, hisobdorlik, adolat va mas'uliyatni oshirishga qaratilgan ko'rsatmalar va

tamoyillardir. Ushbu standartlar yaxshi korporativ boshqaruv amaliyotlari uchun asos yaratadi, shuningdek aksiyadorlar, manfaatdor tomonlar va kengroq jamiyat manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi. Turli tashkilotlar va organlar tomonidan ishlab chiqilgan bir nechta standartlar to'plami mavjud bo'lsa-da, korporativ boshqaruvning eng keng e'tirof etilgan va asosiy xalqaro tamoyillariga quyidagilar kiradi:



1-rasm. Korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari

Korporativ boshqaruvning xalqaro standartlari korporativ boshqaruv tizimlarini yaxshilash, shaffoflikni ta'minlash, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan asosiy tamoyillardan iborat.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) korporativ boshqaruv uchun xalqaro etalon bo'lib xizmat qiluvchi va korporativ boshqaruvning keng qamrovli asosini ta'minlovchi bir qator tamoyillarni ishlab chiqdi. Bu tamoyillar aksiyadorlarning huquqlari, aksiyadorlarga nisbatan adolatli munosabat, manfaatdor tomonlarning roli, shaffoflik va oshkoralik hamda direktorlar kengashining mas'uliyati va barqarorlik kabi sohalarni qamrab oladi.

G20/OECD korporativ boshqaruv tamoyillari — bu korporativ boshqaruv uchun yetakchi xalqaro standartdir. G20/OECD tamoyillarining oxirgi nashri 2023 yil sentyabr oyida G20 Liderlari tomonidan qabul qilindi va quyidagi olti bobdan iborat:

1. Samarali korporativ boshqaruv tizimi uchun asosni ta'minlash: *Korporativ boshqaruv tizimi shaffof va adolatli bozorlar hamda samarali resurslar taqsimotini rag'batlantirishi lozim. Bu qonun ustuvorligiga mos bo'lishi va samarali nazorat va ijroni qo'llab-quvvatlashi lozim.*

2. Aksiyadorlarning huquqlari va ular bilan adolatli munosabatda bo'lish, mulkchilikning asosiy funksiyalari: *Korporativ boshqaruv tizimi aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilishi va amalga oshirishga yordam berishi hamda barcha aksiyadorlarga, shu jumladan minoritar va xorijiy aksiyadorlarga nisbatan adolatli munosabatni ta'minlashi lozim. Barcha aksiyadorlar o'z buzilgan huquqlari uchun samarali tarzda zararni qoplanish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim.*

3. Institutional investorlar, fond bozorlari va boshqa vositachilar: *Korporativ boshqaruv tizimi investisiya zanjiri bo'ylab ishonchli rag'batlarni ta'minlashi va fond bozorlarining yaxshi korporativ boshqaruvga hissa qo'shadigan tarzda ishlashini ta'minlashi lozim.*

4. Axborot oshkorligi va shaffoflik: *Korporativ boshqaruv tizimi korporatsiyaga taalluqli barcha muhim masalalar, jumladan, kompaniyaning moliyaviy ahvoli, faoliyati, barqarorligi, egalik huquqi va boshqaruvi to'g'risida o'z vaqtida va aniq oshkor etilishini ta'minlashi lozim.*

5. Kengashning vazifalari: *Korporativ boshqaruv tizimi kompaniyaga strategik boshqaruvni, rahbariyat ustidan samarali monitoringni olib borishni hamda kengashning kompaniya va aksiyadorlar oldidagi hisobdorligini ta'minlashi lozim.*

6. Barqarorlik va mustahkamlik: *Korporativ boshqaruv tizimi kompaniyalar va ularning investorlarini korporatsiya barqarorligi va mustahkamligiga hissa qo'shadigan tarzda qarorlar qabul qilish va risklarni boshqarish uchun rag'batlantirishi lozim.*

Korporativ boshqaruv tizimining xalqaro standartlarini joriy etishning samarali yo'llaridan biri, kompaniyalar va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishdir.

Birinchidan, kompaniyalar o'z boshqaruv tizimlarida xalqaro standartlarga mos o'zgarishlar kiritishlari lozim. Bunga korporativ siyosatlarni qayta ko'rib chiqish, huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash va rahbariyatning malakasini oshirish orqali erishish mumkin. Ikkinchidan, davlat tomonidan nazorat qilish mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim. Bu tizimlar, ayniqsa, korrupsiyaning oldini olish va jamiyatning boshqa manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Tartibga solish va moliyaviy hisobotlar sohasida xalqaro amaliyotlarga e'tibor qaratish kerak. Xususan, moliyaviy hisobotlar va auditlar shaffof va aniq bo'lishi, shuningdek, raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun maxsus tizimlar ishlab chiqilishi zarur. Misol uchun, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari tizimiga asoslanish korporatsiyalarga o'z moliyaviy holatini yaxshiroq kuzatib borishga va globallashtirish jarayoniga moslashishga imkon beradi. Agar kompaniyalar va davlatlar global kapital bozorlaridan to'liq foyda olishni istasalar, korporativ boshqaruv asoslari ishonchli bo'lishi, mamlakat ichida ham, chegaralar tashqarisida ham yaxshi tushunilishi va xalqaro miqyosda qabul qilingan tamoyillarga mos kelishi lozim.

1-jadval

Korporativ boshqaruv tizimlarining ilg'or mamlakatlarda tahlili

Mamlakat	Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari
AQSh	erkin bozor tamoyillariga asoslangan tizim, kompaniyalar mustaqil va samimiy boshqaruvga ega; aksiyadorlarning huquqlari yuqori darajada himoyalangan.	bozorni haddan tashqari liberallashtirish ba'zan qisqa muddatli manfaatlarni ustun qo'yishiga olib keladi; ijtimoiy va ekologik javobgarlik kamroq inobatga olinadi.
Buyuk Britaniya	kodifikatsiyalangan korporativ boshqaruv kodekslari mavjud; kompaniyalar "tushuntir yoki amal qil" ("comply or explain") tamoyiliga amal qiladi.	qonunchilik erkinligi sababli ba'zan nazorat zaiflashadi; kichik aksiyadorlar ba'zan e'tibordan chetda qoladi.
Germaniya	ikki bosqichli boshqaruv tizimi amal qiladi; ishchi-xodimlardan vakillar boshqaruvda ishtirok etishi ta'minlangan.	qarorlar qabul qilish jarayoni nisbatan sekin; aksariyat kompaniyalar davlat va banklar bilan yaqin aloqada bo'ladi.
Yaponiya	korporativ guruhlar va banklarning kuchli roli barqarorlikni ta'minlaydi; uzoq muddatli strategiyalar ustuvor.	raqobat cheklanishi mumkin; korporativ axborotlarni oshkor qilish past.
Janubiy Koreya	hukumat tomonidan korporativ boshqaruv islohoti faol qo'llab-quvvatlanmoqda; texnologik kompaniyalar o'sishiga turtki berilgan.	yirik guruhlar (chaebol) tomonidan boshqaruv markazlashuvi; manfaatlar to'qnashuvi va shaffoflik bilan bog'liq muammolar mavjud.

2020-yillarda korporativ boshqaruvning rivojlanishi yanada komplekslashdi va yangi tamoyillar paydo bo'ldi. Barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat, va korporativ etika kabilar asosiy yo'nalishlarga aylandi. Bugungi kunda korporativ boshqaruvning rivojlanishida quyidagi tamoyillar muhim o'rin tutadi:

✓ ESG ko'rsatkichlari kompaniyaning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv natijalarini baholashda asosiy rol o'ynamoqda. Investitsiyalarni jalb qilishda ESG omillari alohida ahamiyat kasb etadi.

✓ Korporativ boshqaruvda shaffoflikni ta'minlash va hisobdorlikni kuchaytirish hamon muhim ahamiyatga ega. Aksiyadorlar va manfaatdor tomonlar uchun ochiqlik va axborotlarni taqdim etish zarur.

✓ Texnologiyalarning rivojlanishi bilan kompaniyalar boshqaruvni avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili yordamida samarali qilishni davom ettirmoqdalar.

Korporativ boshqaruvning rivojlanishi davomida uning asosiy tamoyillari va yondashuvlari o'zgarib, yangi yondashuvlar va standartlar ishlab chiqilmoqda. Korporativ boshqaruv standartlari global miqyosda kompaniyalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish va jamiyatga foyda keltirishga qaratilgan tavsiyalarni qamrab oladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy mas'uliyat va barqarorlik kabi omillar zamonaviy korporativ boshqaruvda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Korporativ boshqaruv tizimlari turli mamlakatlarda iqtisodiy, institutsional va madaniy omillarga qarab farq qiladi. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribalari asosida ularning kuchli va zaif jihatlari quyidagicha tahlil qilinadi.

Jahon banki biznes yuritish indikatorlari hamda Xalqaro moliya korporatsiyasi hisobotlariga tayangan holda, 15 ta davlatda xalqaro korporativ boshqaruv standartlarining amaliyotga joriy etilishi tahlil qilingan. Natijada, xalqaro standartlarni qabul qilgan kompaniyalarda aksiyadorlar daromadi o'rtacha 15–20% ga oshgan. Boshqaruvning shaffofligi va hisobdorligi yuqori bo'lgan, bu esa investor ishonchini oshirgan. Tashqi audit va mustaqil direktorlarning roli kuchaygan.

Xulosa va takliflar.

Korporatsiyalarda korporativ boshqaruv tizimlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish nafaqat o'z ichki samaradorlikni oshirish, balki global bozor sharoitida muvaffaqiyatli raqobatlashish uchun ham zarur. Xalqaro tajriba va ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun rahbariyatning malakasini oshirish, axborot shaffofligini ta'minlash va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish kabi amaliy choralarni amalga oshirish lozim. Shu bilan birga, korporatsiyalar xalqaro standartlarga mos boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali raqobatbardoshligini oshirishi, jamiyat va ekologik barqarorlikni ta'minlashi mumkin.

Xalqaro standartlar kompaniyaning korporativ boshqaruv tizimiga bir qancha islohotlarni amalga oshirishiga ko'maklashadi. Asosan, kompaniyaning samarali va shaffof ishlashini ta'minlash orqali quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- Xalqaro standartlar kompaniyaning moliyaviy va boshqaruv faoliyatlarini aniq va tushunarli qilishni talab qiladi. Bu shaffoflik investorlar, xodimlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun zarurdir;
- kompaniyaga korporativ boshqaruvning eng yaxshi amaliyotlarini joriy etadi. Shuningdek, direktorlar kengashining va boshqaruv strukturasining samarali ishlashini ta'minlaydi, hamda risklarni boshqarish va kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligini saqlaydi;
- Kompaniya boshqaruvi xodimlari va direktorlarining javobgarligini kuchaytirish, ularning qarorlari va faoliyatlarini doimiy nazorat qilish, moliyaviy va boshqa hisobotlarni to'g'ri va o'z vaqtida taqdim etish talab qiladi;
- kompaniyaning xodimlar, mijozlar, hamkorlar va aksiyadorlar bilan ochiq va samarali muloqot o'rnatishiga undaydi. Bu kompaniya uchun ishonchni oshiradi va jamoaviy muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- kompaniyaning faoliyatida korrupsiyaga yo'l qo'ymaslikni, ichki siyosatlari va amaliyotlari orqali bu muammo oldini olishga qaratilgan islohotlarni taqdim etadi;
- kompaniyaning ijtimoiy va ekologik mas'uliyatlarini hisobga olishga undaydi. Bu kompaniyaga nafaqat moliyaviy muvaffaqiyatni ta'minlash, balki jamiyat va atrof-muhitga ham foyda keltirish imkoniyatini yaratadi;
- Kompaniyalar, xalqaro standartlarga mos ravishda, har qanday turdagi risklarni oldindan aniqlash, baholash va ularni kamaytirishga yo'naltirilgan tizimlarni joriy qilishadi.

Shu tarzda, xalqaro standartlar kompaniyaning korporativ boshqaruv tizimini yanada samarali, shaffof va ishonchli qilishga yordam beradi. Bu nafaqat kompaniyaning ichki faoliyatini yaxshilaydi, balki uning bozor o'rnini mustahkamlaydi va global raqobatbardoshligini oshiradi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Ashurov Z.A., Djalilov F.A., Urinov B.N. (2021) "Zamonaviy korporativ boshqaruv (xorijiy tajriba)". O'quv qo'llanma. – "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi" - nashriyoti, 245 bet.

Clarke, T. (2007) "International Corporate Governance: A Comparative Approach".

Michael C. Jensen va William H. Meckling (1976) "Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure".

OECD (2023), G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/ed750b30-en>.

OECD (2023), OECD Corporate Governance Factbook 2023, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/6d912314-en>.

OECD (2025), Methodology for Assessing the Implementation of the G20/OECD Principles of Corporate Governance 2025, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/80996ea9-en>.

OECD. (2015). Corporate Governance: The Role of Boards in Monitoring and Protecting Stakeholders.

Raghuram G. Rajan va Luigi Zingales (1998) "The Firm in the Theory of Finance".

Shleifer, A. va Vishny, R.W. (1997) "A Survey of Corporate Governance".

Stephen A. Ross va Randolph W. Westerfield (2004) "Corporate Finance".

Urinov B.N., Kenjayeva U.F. (2024) Korporativ boshqaruv. Darslik – T.: OOO "DIADEMA NUR SERVIS", 405 b.